

ISSN:3060-4567 Modern education and development
Ch'OLPONNING "KECHA VA KUNDUZ"RAMANINING
MILLIY REALIYALARNI TARJIMADA AKS ETTIRISH VA ULARNI
TARJIMA QILISH USULLARI

Turdiyeva Fotima

Amirova Husnobod

Qurbonova Dildora

Denov tadbirkorlik va pedogogika instituti talabalari

Annotatsiya - Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiklay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarni qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rur ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?

KALIT SO'ZLARI- *oila, gender tengsizlik, ta'lim, ijtimoiy tengsizlik, hokimiyat, inson harakteri*

REFLECTION OF NATIONAL REALITIES IN THE
TRANSLATION OF CH'OLPON'S NOVEL "NIGHT AND DAY" AND
METHODS OF THEIR TRANSLATION

Annotation - The joy of spring, which comes every year, began to tickle the hearts again. Again warm blood rushed to nature's throbbing bodies...

The blue-blue hair of the willows began to shake like a girl's braided hair. The sad faces of the waters that flowed muddy under the ice laughed, and they themselves, on the tired legs, like a freed slave, pressed the drug of freedom forward. A few birds began to appear on the tops of the trees. The first spotted bird gives the first cracked cucumber. The bultur was planted and the tumor that darkened many eyebrows rose again from its root... After it was frozen in gentle hands and turned into water, it loves to lie down on the platform of beautiful eyes! The cool breeze, which does not touch men's floral hats, plays with naked women, their hair, dresses, and headscarves.

Why is life so beautiful and sweet in spring?

KEY WORDS - family, gender inequality, education, social inequality, power, human character

- Realiya- (ko'plik ism) madaniyatga xos moddiy elementlar uchun so'zlar va iboralardir. Realiya so'zi o'rta asr lotin tilidan olingan bo'lib, u dastlab „haqiqiy narsalar“ degan ma'noda, ya'ni mavhum narsalardan farqli ravishda mavjud narsalarni anglatadi. Realiyani chuqur o'rganishni birinchi bo'lib amalga oshirgan bolgar tarjimonlari Vlahov va Florin so'zning zamonaviy ma'nosini yaratdilar. Ular shuni ko'rsatadiki, realiya juda milliy ohangga ega bo'lgani sababli, ular ko'pincha tarjima uchun qiyinchilik tug'diradi. Realiyani terminologiya bilan chalkashtirib yubormaslik kerak: terminologiya - ilmiy adabiyotda ilmiy sohaga tegishli narsalarni belgilash uchun ishlatiladi va odatda juda aniq stilistik maqsadga xizmat qilish uchun faqat boshqa turdagi matnlarda qo'llanadi. Badiiy adabiyot, ular keltiradigan ekzotik ko'rinish uchun realiyani yaxshi ko'radi.

- Analogiya (yun. analogia — muvofiqlik, aynanlik, o'xshashlik) — 1) (falsafada) predmet va hodisalarda bi-ror xususiyatning o'xshashligi. Mantikda A. yordamida ikki predmetning kaday-dir bir xususiyati o'xshasa, boshqa xususiyatlari ham o'xshashligi haqida xulosa chiqariladi

- Kalka (frans. caique — nusxa, tak,lid) — boshqa til lug‘aviy birligidan ona tili vositalari asosida nusxa ko‘chirish (so‘zma-so‘z tarjima qilish) natijasida yuzaga kelgan so‘z, atama yoki birikma. Kalkaning ma‘noviy va shakliyma‘noviy turlari mavjud. Ma‘noviy Kalka so‘zning ohangi va so‘z yasali shakli jihatidan ona tiliga mansub bo‘lsada, ma‘no jihatdan chet so‘zlarning ta‘siriga bog‘likdir: "maydon" (magnit maydoni) — "pole". Shakliyma‘noviy Kalka o‘zga tildagi ma‘noni ifodalay oladigan unsurlar asosida ona tilida yangi lug‘aviy birlik hosil qilishdir

- Transkripsiya (transcriptio ko‘chirib yozish) — yozuvning nutq tovushlari talaffuzini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan sun‘iy (shartli) turi; nutq bo‘laklari (tovush, bo‘g‘in, so‘z)ning tovushiy sifatlarini yozuvda aniq aks ettirish usuli.

- Transliteratsiya (lotincha: trans — „qarshi“, „orqali“ va littera — „harf“) deb bir yozuv tizimidagi matnni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan berishga aytiladi

Quyidagi jihatlarni o‘rganamiz, bu so‘z birliklari albatta boshqa tillardan aynan o‘ziga mos so‘z bilan ifodalanib, unga ekvivalent sifatida ishlaydi, lekin ko‘chma ma‘noda bizning milliy va madaniy jihatdan o‘zimizni shu so‘zlar bilan bog‘liq holda anglashimizni bildiradi

Biz Cho‘lponning "Kecha va Kunduz" ramanini ichidan o‘zbek millatiga xos bo‘lgan realiya so‘zlar Ular **Hamal keldi, amal keldi.**

Paranji (arab, faraji — keng ko‘ylak) — ko‘pchilik musulmon ayollarining yopinchig‘i; chachvon bilan birga ansambl hosil qilgan. Ayollar gavdasini boshidan oyoq yashirib turishga xizmat qiladi. Bichimi keng to‘n shaklida bo‘lib, yelkadan pastga tomon torayib boruvchi uzun bandagi (yengi) etakka yaqin joyda bir-biriga chatib birlashtiriladi. Ayol yuzini chachvon to‘sib turadi. Avra-astarli kilib tikiladi. Avrasi baxmal kimxob, banoras, olacha va boshqa matolardan tikilib, chetlari kashta tikib, kashtali jiyaklar tutib bezatiladi, astari chit, satindan tayyorlanadi hamda chetlariga zangori, pushti yoki sidirg‘a shoyidan adip qilinadi. Paranjining ikki yoniga (cho‘ntak o‘rniga) tik tushgan (25

sm uzunlikda) 2 ta jiyak tutashtirib chatiladi, jiyaklar uchidan popukchalar chiqarilgan, ba'zan qo'ng'iroqchalar osilgan.

Aylanay (10-bet) : Sadag'ang ketay, qurbon bo'lay; o'rgilay (erkalash, suyish va sh.k. munosabatni bildiradi).

So'fi (12-bet) Odamlarni nomozga chorlovchi; xudojo'y, taqvodor. Shakllari: So'fibek, So'fijon

Eshon (11-bet) (chig'atoycha — išan) — so'fiylik oqimlarida diniy rahnamolar unvoni. Odatda, Eshonlar darvishlik, so'fiylik oqimlarining biriga mansub bo'lgan.

Do'ppi(12-bet) (o'zbekcha: دوپپا, uyg'urcha: دوپپا) – yengil bosh kiyimi. Qadimdan eroniy va turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan.

Salla (14-bet) (fors. — tugun) — musulmon erkaklarning bosh kiyimi. Sidirg'a (oq, yashil, kulrang va boshqalar) mato (asosan, doka)dan tayyorlanadi, eni 0,5 metr, uzunligi 1,5—3 metrdan 7 metrgacha o'lchamda bo'ladi. Ayrim manbalarda matoning uzunligi 5 metr bo'lgani yaxshidir deyilgan. Salla kiyib o'qilgan namoz sallasiz o'qilgan namozdan 70 baravar savobliroq ekani aytilgan. Shuning uchun ham salla o'rashlik musulmon ahliga Payg'ambarimiz Muhammad(sav)dan sunnat bo'lib qolgan Sallani do'ppi, kuloh, telpak ustidan, ayrim joylarda (Hindiston, Pokiston va boshqalarda) bosh kiyimsiz yalang boshqa o'raladi. Hukmdor, vazir, amaldorlarning unvoni va lavozimiga qarab sallaga qimmatbaho toshlar (gavhar, yoqut va boshqalar), ukpar ham taqilgan. Sallaning o'ramlar soni va o'ralish usuli, matosi diniy mazhablarni hamda kishilarning ijtimoiy mansubligini bildirgan (masalan, said, hojilar yashil rangli salla o'ragan)

Dasturxon(17-bet) 1) o'zbekcha taom tanovul qilish uchun to'shaladigan maxsus mato; 2) turli taom, meva-cheva va noz-ne'mat tuzab qo'yilgan stol; 3) to'y, bayram va boshqalarda mehmondorchilikka mehmon olib boradigan sovg'a, taom. Masalan, palov tayyorlash uchun zarur masalliq, ya'ni oshning xomi; somsa, qand-qurs, patir, qatlama, non va boshqalar.

Sep (15- bet) (Sarpo) — kelinga ota-onasi tomonidan ajratilgan hamda qarindosh-urugʻlari tomonidan tortiq etiladigan va nikoh paytida unga tegishli boʻlgan mulkdir.

Toʻn (14-bet) oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim, chopon[1]. Bichigʻi toʻgʻri bichimli boʻladi. Ichiga paxta solib qaviladigan paxtali toʻn va paxtasiz (avraastardan iborat yalang qavat) toʻn xili bor.

Xurjun (19-bet) ikki qopchiq (boʻlma)li toʻrva, Sharq mamlakatlarida qadimdan narsa (yuk) koʻtarib yurishda keng foydalaniladi.

Tandir (25-bet) non, somsa, kabob va shu kabi taomlarni yopib pishirish uchun qurilgan maxsus loy oʻchoq.

Piyola (23-bet) uy-roʻzgʻor buyumi; tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan taglikli idish. Xosyadan kichik hajmda boʻladi, asosan choy ichiladi.

Kavush (19-bet) (forscha: — poyabzal turi) odatda mahsi bilan yoki sarpoychang kiyiladigan oyoq kiyimi. Kalish betlik, jagʻ, dastak, tagcharm va poshnadan iborat. Kalish shaklida, dastagi va jagʻi kalishga nisbatan ensiz. Baland va past poshnali boʻladi. Kosiblar tomonidan erkaklar (mardona), ayollar (zaifona), bolalar (bachkana) kovush xillari tayyorlanadi.

Chimmat (19-bet) Chimmat koʻchma Parda, toʻsiq degan maʼnoni bildiradi

Oʻchoq (17-bet) olov yoqish, uni saqlash va ovqat pishirish uchun moʻljallangan, ustiga qozon oʻrnatiladigan uch tomoni yopiq qurilma

Qaynona — (26-bet) xotinning onasi, nikoh natijasida paydo boʻlgan qarindoshi .

„**Qaynona**“ soʻzi slavyan tilidan kelib chiqqan boʻlib, slavyan tillar oilasida tegishli oʻxshashlarga ega (qarang. ukraincha: теща, belaruscha: цешча, bolgarcha: тъща, serboxorv. tashta / tašta, polyakcha: teściowa va boshqalar).

Kampir- (26-bet) Yoshi ulgʻaygan, kekxa, qari xotin.

Yaktak — (17-bet) yozgi, yengil kiyim; erkaklar koʻylagi. Oldi ochiq, uzun, yengli hamda tik yoqali. Ya. toʻgʻri bichimli, kalta (uzunligi asosan tizzagacha) va yalang qavat boʻlishi bilan yaoʻidan farq qiladi; asosan oq (boʻz) surp, shuningdek yoʻl-yoʻl matolardan tikiladi. Ya. orqa-oldi yelkadan oshirib

tashlangan yaxlit matodan tashkil topgan, uning ikki yoniga yonlar, yenglar tana qismiga to'g'ri ulanib, yeng va yonlar orasiga qulpak solingan. Uzun, ensiz bir necha qavat tasmasimon bo'lakdan iborat bo'lgan hamda uzunasiga bir necha qator choklar solib qotirilgan yoqa yoqa o'yig'iga ulangan. Orqa tomoni tik, oldi ko'krakkacha tekis tushib turadi. Ya. bag'rini birlashtirish uchun yoqaning pastki qismiga bog'ichlar tikiladi yoki izma qilib tugma qadaladi.

ARAVAKASH (26-bet) Bu ot arava otiga (k.) 'tort-, yurgiz' ma'nosini anglatadigan tojikcha kashidan fe'lining kash hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, 'arava haydovchi kishi' ma'nosini anglatadi

Darbadar- (27-bet) Muhtojlik tufayli eshikma-eshik yuruvchi; (majburiyat orqasida yoki jahongashtalik maqsadi bilan) o'zga ellarda g'urbatda kezuvcchi; ovora, sarsonu sargardon.

Zindon (fors.) — (27-bet) mahbuslar saqlanadigan yer ostidagi zax va qorong'i joy, atrofi qal'aband qamoqxona. Qulchilik davrida paydo bo'lgan. Ko'proq hukmdorlar qasri, qal'asi ostida konussimon quduq shaklida qazilgan, 5—7 m, yer osti suvi yuzada bo'lgan joylarda pishiq g'ishtdan, gumbaz shaklida yer ustida qurilgan. Z.ning obxona degan turi ham bo'lgan

Xulosa

Realiya har bir millatning madaniyatini urf-odatlarini va milliy so'zlarini namoyon qilib beradi. Shunday realiyalar borki ularni tarjima qilib bo'lmaydi. Yuqorida biz asardagi realiyani o'rganib chiqdik. Hayotiy bo'lgan realiya so'zlar ham juda ko'p ularni chet tiliga tarjima qilishni iloji yo'q. tarjima qilinsa ham umuman boshqa ma'noga aylanib ketishi mumkin. Bu g'alizlik tilni ham asarni ham noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi.

Foydalanilgan ababiyotlar

1. A. E. Mamatov "Zamonaviy Lingvistika" 2019, Toshkent
2. Butayev Sh., Irisqulov A., Ing.-O'zb, O'zb-Ing. Lug'at. www.ziyouz.com kutubxonasi
3. Bakiyev F "Gid ekskursovodlik matnlarida ekvivalentsiz birliklar tarjimasi" maqolasi, "Til, madaniyat, tarjima va muloqot" Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.

4. Bakiyev F. “Til, madaniyat, tarjima va muloqot” Respublika ilmiy-ommaviy konferensiyasi materiallari- Samarqand, 2016-2017 noyabr.
5. E.Ochilov “Badiiy tarjima masalalari”-Toshkent, 2014.